

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/4 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ 5/4 (3) - 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Аббасов Беҳзод Бахтиёрович*
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ
ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ
БОШЛАНИШИ 10-21
- Бабаджанов Хасан Бахтиёрович*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ
ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ 22-27
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ 28-36
- Rasulov Ma'murjon Foziljonovich*
O'ZBEKISTONDA XALQARO SAYYONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS
OBJEKTLARINING O'RNI 37-42
- Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна*
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ
ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ 43-51
- Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
FARG'ONA VODIYSI QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN 52-58
- Фарманова Гульнора Комилевна*
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА
АФРАСИАБЕ 59-65
- Turaev Sherzod Gulboy ugli*
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN
OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH 66-71
- Сотиболдиев Файратжон Отамирзаевич*
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА
ЕЧИМЛАР 72-78
- Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ
ТАВСИФИ 79-90
- Абдуллажанова Нигорахон Турдалиевна*
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН 91-95
- Дониёров Носиржон Абдухолиқ ўғли*
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН 96-102

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқулова*
ИСЛОМИЙ СУҒУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 103-109

<i>Фозилов Умид Закирович</i> БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ	110-118
<i>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</i> BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O‘RNI	119-125
<i>Орзукулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи</i> ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ	126-133
<i>Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur</i> O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI	134-139
<i>Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li</i> YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	140-146
<i>Ёдгорова Шахноза Хайридиновна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ	147-155
<i>Qurbonov Ma‘murjon G‘ayrat o‘g‘li</i> ASOSIY ISHLAB CHIQRISH KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	156-166
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i> BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O‘ZBEKISTON TURIZMI RIVOJLANISHIDAGI ANAMIYATI	167-172
<i>Маматов Бахадир Сафаралиевич</i> РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛАНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ	173-188
<i>Ғойипназаров Санжар Баходирович</i> ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҚАМЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	189-195
<i>Садинов Азиз Зиядуллаевич</i> ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	196-203
<i>Қурбонова Раҳима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Хакимов Дамир</i> ИЖТИМОЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ	204-216
<i>Asatxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o‘g‘li</i> YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSIYALARNI YO‘NALTIRISH ZARURIYATI	217-222

Исломов Алишер Бахтиёр ўғли
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ
ТАЪМИНЛАШ 223-229

Agzatova Nargiza Garurovna
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN 230-237

Муродова Дилноза Чориевна
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ
ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ 238-245

Khodjaeva Shodiyabonu Abitdjanovna
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING
FUNKSIYALARI 246-250

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ
ЎРНИ 251-259

Ibroximov Sarvar Mo'yudinjon o'g'li
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH 260-265

Yuldashev Ibroxim To'uchiyevich
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO
UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING
MUSHTARAKLIGI 266-271

Khamdamova Sitora Safarovna
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA
XOSLIGI 272-277

Абдуллаев Джасур Абдиваит ўғли
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО
ЧЕЛОВЕКА 278-283

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK
BIRLIKLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR 284-292

Qurbonova Muharram Jurabekovna
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI 293-297

Сафарова Замира Рустамовна
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК
ТАСНИФИ 298-304

<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i> THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS'	305-313
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi</i> ETEL LILIAN VOYNICHNING “SO’NA” ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ...	314-318
<i>Seytnazarova Injayim Erjanovna</i> TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDA LMALARNING USLUBIY QO’LLANILISHI	319-325
<i>Асадова Дилбархон</i> ЎРХОН ПАМУҚНИНГ “ҚОРА КИТОБ” РОМАНИДА “ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ” МОТИВИ	326-342
<i>Khusanov Eldor Davlat o’g’li</i> BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALARINING O’XSHASH VA FARQLI JIHATLARI	343-348

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Утемурастов Махмут Ажимурастович</i> ЖАМИЯТДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	349-355
<i>Шымбергенова Улзада</i> ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	356-362
<i>Полвонов Нажмиддин Аслиддинович</i> ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ	363-372
<i>Мирзаев Шухрат Шавкатович</i> КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ	373-382
<i>Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли</i> “ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ”	383-392
<i>Махмудов Суннат Азим ўғли</i> ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	393-399

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Farrux Axmedov</i> XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH	400-409
<i>Музафарова Саодат Хайдаровна</i> ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ	410-415

<i>Xaydarova Iroda Nizomiddinovna</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ...	416-421
<i>Шукурова Нафиса Алишеровна</i> ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ	422-427
<i>Nigmanov Bori Botirovich</i> FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI	428-433
<i>Муродова Дурдона Раимжон қизи</i> БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ	434-438
<i>Axmedov Alisher Nosir o'g'li</i> ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI	439-447
<i>Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	448-452
<i>Mansurbekova Feruza Gayratovna</i> BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	453-456
<i>Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna</i> O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI	457-465
<i>Atamuratova Munira</i> O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI	466-471
<i>Нурилло Эминов</i> ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА БИР НАЗАР	472-476

13.00.00 – Педагогика фанлари

Xaydarova Iroda Nizomiddinovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ikkinchi chet tili kafedrasida, o'qituvchi
iymonasad@gmail.com

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH
NUQTA'I NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI
TAHLILI**

Annotatsiya. Maqolada 2020-2021 o'quv yili fan va ishchi dasturlari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti va Guliston davlat universiteti misolida o'rganilib, tahlil qilindi. Ushbu ilmiy izlanishda filologik yo'nalishlarda ingliz tili talaffuzini o'qitish jarayoni tahlil qilindi va mavjud muammolarni bartaraf etish choralari taklif etildi.

Kalit so'zlar: ingliz tili talaffuzi, interferensiya, fan dasturi, o'quv ishchi dasturi.

Хайдарова Ирода Низомиддиновна
Узбекский государственного университета мировых языков
Кафедра второго иностранного языка, преподаватель
iymonasad@gmail.com

**АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ПРОГРАММ И МАТЕРИАЛОВ НА 2020-2021 УЧЕБНЫЙ ГОД
ТОЧКИ ЗРЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОИЗНОШЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Аннотация. В статье изучены и проанализированы научные и рабочие программы на 2020-2021 учебный год на примере Узбекского государственного университета мировых языков, Самаркандского государственного института иностранных языков и Гулистанского государственного университета. В данном научном исследовании был проанализирован процесс обучения английского произношению по филологическим направлениям и предложены меры по устранению существующих проблем.

Ключевые слова: английское произношение, интерференция, учебная рабочая программа для 2020-2021 учебного года

Khaydarova Iroda Nizomiddinovna
Uzbek State World Languages University
Department of the second foreign language, teacher
iymonasad@gmail.com

**ANALYSIS OF SCIENTIFIC PROGRAMS AND MATERIALS FOR THE 2020-2021
ACADEMIC YEAR POINT OF VIEW OF IMPROVING THE PRONUNCIATION OF FUTURE
ENGLISH TEACHERS**

Abstract. The article considers and analyses scientific and work programs for the 2020-2021 academic year on the example of the Uzbek State World Languages University, Samarkand State Foreign Languages Institute and Gulistan State University. In this scientific study, the process of teaching philological areas was analysed and recommendations were made to eliminate common problems.

Key words: English pronunciation, interference, syllabus and materials for the 2020-2021 academic year.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N52>

Kirish. Chet tilini o'rganish til o'rganuvchilarga qiyinchilik tug'dirishi holatlariga ko'p duch kelamiz va kasbiy nuqtai nazardan kuzatib boramiz. Chet tili o'rganish jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish chet tilining asosiy va doimiy qo'llaniladigan darajasini o'zlashtirishda uzoq muddat talab etadi. Qiyinchiliklarning asosiy ko'zga tashlanadigan qismi chet tili talaffuzidir. O'rganilayotgan til ikkinchi til bo'lgan holatda ikki til ya'ni, ona tili hamda chet tili o'rtasidagi interferensiya namoyon bo'ladi. Ammo, o'rganilayotgan til uchinchi til bo'lsa interferensiya uch til ta'sirida yuzaga keladi. Bu holatda o'rganilayotgan tilda aniq va ravon so'zlashish bir muncha qiyinlashadi.

Til o'rganuvchilar o'rganilayotgan til grammatikasi va lug'at boyligini oshirgan bo'lishiga qaramay ularda og'zaki nutq shakllanishi yoki chet tilida erkin so'zlashish qobiliyati rivojlanish darajasiga chiqmay qolish holatlari tajribalarda kuzatiladi. Buning sababi, talaffuzdagi xatoliklar, o'z fikrini aniq tinglovchiga yetkazishda to'siq bo'lib, til o'rganuvchining ruhiyatiga ta'sir etgan holda ularning chet tilida gaplashish istagini so'ndiradi, yoki o'zlashtirishni kechiktiradi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, ta'lim tizimini xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat talabiga javob beruvchi kadrlarni yetishtirish maqsadida katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan oliy ta'lim tizimini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish, ularni xalqaro mingtalik reytinga kiritish, shu jumladan, o'quv yurtlariga qabul qilishda ob'ektiv va adolatli tizimni o'rnatish, nufuzli chet el universitetlari filiallarini tashkil etish borasidagi amaliy ishlar bajarilmoqda.

Tahlil. Oliy ta'limda chet tili talaffuzini o'qitishni takomillashtirish borasida mavjud masalalarga to'xtalishni joiz deb bildik. Filologik yo'nalish talabalariga ingliz tili talaffuzini o'qitish yuzasidan amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlari va materiallarining tahlili tadqiqotimiz oldidagi vazifalardan biridir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarga ingliz tili talaffuzini o'qitishda darslar samaradorligini belgilab beruvchi omillarning jarayondagi o'rnini o'rganishdan iborat.

M. Vrembel [4, P.195] fonetika fani o'quv darsliklarini tahlil qilib, shu kunga qadar talaffuzni rivojlantirishda audio-lingual metod ustunlik qilishini, fonetik bilimlardan ongli ravishda foydalanishga qaratilgan mashqlar, mustaqil o'zlashtirish, o'z ustida ishlashga doir mashqlarga hozirgi kunga qadar keng e'tibor qaratilmayotganini ta'kidlaydi va chet til o'qitishda talaffuzga bo'lgan e'tibor sustligini aytib o'tgan. L. Bussning ham fikri M. Vrembel bilan hamohang. L. Buss [2, P. 620] ko'plab chet til o'qituvchilari zamonaviy o'qitish metodlarini bilmasligiga e'tiroz bildirgan. Darhaqiqat, o'qituvchilarning ta'lim berishda ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yishi, belgilangan dars soatidan unumli va samarali foydalana olmasligi ko'zga tashlanadi. Chet tili o'qituvchilari o'qitishda til talaffuziga yetarlicha e'tibor

qaratmasligini til o'rganuvchilar talaffuzidagi xatoliklar oshkor etadi. Bu nafaqat ikkinchi chet tilida filologik yonalish talabalarida ham seziladi.

Talaffuz borasidagi sustlik, har bir tilning sof talaffuzini saqlab qolish borasidagi say-harakatlarning zaifligi yaqqol namoyon bo'ladi. Til o'rganishda eng muhimi chet tilida gapirishi, so'zlasha olishi, fikrini bayon etish deya qarash, talaffuzni inobatdan chetta qolishiga zamin yaratmoqda. Bunday holat til sohiblari(ingliz tili)da ham dolzarb muammo hisoblanadi. M. Ashbi [1, P. 11–14] Buyuk Britaniyada til talaffuzi tarixini o'qitish, ular ustida izlanish yuzasidan muammolar borligini bildirgan. Til yillar davomida shakllanadi va o'zgaradi. Til tarixini o'rganish esa tilning aslini o'rganish va uni saqlab qolishga imkon yaratadi. Shu jihatdan ham talaffuz tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamiz oliy ta'limida chet tili talaffuzi uning fonetik va fonologik jihatlarini o'qitish jarayonida bir nechta kitob va saytlarga murojaat etadi. Misol «Xorijiy til va adabiyoti» yo'nalishining "Kommunikativ-normativ fonetika" [8] fan dasturini taxlilini qildik. Fan dasturi Samarqand davlat chet tillari instituti kengashi tomonidan tasdiqlangan. Dasturda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar sifatida quyidagilar keltirilgan. **Asosiy adabiyotlar:** Sadiyeva N. O. Practical Course of English Phonetics.; Arakin V. D. Практический курс английского языка (I и II части), –М, 1998.; Sokolova M. A. Практическая фонетика Английского языка –М, 2001.; Korobova Практикум по произношению и чтению. **Qo'shimcha adabiyotlar sifatida** Hancock M. English Pronunciation in Use. Intermediate and Above, CUP. 2003.; Hancock M. English Pronunciation in Use. Advanced book with answers (with 5 audio CDs) berilgan.

Umumiy soat 124 soat, shundan 68 soati amaliy mashg'ulotlar (34 ta mavzuni o'z ichiga oladi) uchun qolgan 56 soati mustaqil ta'limga (23 ta mavzuni o'z ichiga oladi) ajratilgan.

Asosiy adabiyotlar ro'yxatidagi birinchi va to'rtinchi kitoblar nashri ko'rsatilmagan. Internet yordamida izlaganimizda ushbu kitoblar borasida bironta ham ma'lumotga duch kelmadik. Bundan ma'lum bo'ladi-ki, adabiyotlar yetarli emas, tor doirada belgilangan. Bunday holat Guliston davlat universitetida ham kuzatiladi [5]: Asosiy adabiyot sifati bitta Sokolova M.A. Практическая фонетика Английского языка. Учебник для студентов высших учебных заведений. Москва. 2003 г. Keltirilgan. Qo'shimcha adabiyotlar sifatida esa: Mark Hancock. English Pronunciation in Use. Cambridge Univ. Press. 2000.; Antipova E. Ya. English Intonation. Leningrad, 1974.; Cambridge Advanced Learners Dictionary, L., 2000.; Dikushina O. I. English Phonetics – M., 1965.; Gimson A. C. An Introduction to the Pronunciation of English. Ldn., 1964.; Kingdon R. English Intonation Practice. England, 1960.

Asosiy kitoblar sifatida ingliz adabiyotlari belgilanishi lozim. Sababi fan doirasida shu til fonetikasi va talaffuzi o'qitilmoqda. Asosiy va muhim ahamiyatga ega ingliz adabiyotlari qo'shimcha adabiyotlar tarkibida keltirilgan. Bu adabiyotlar yiliga nazar solsangiz 20 yil oldin nashrdan chiqqan. To'g'ri asosiy ma'lumotlar o'zgarmaydi. Biroq, kitob dizayni hozirgi yoshlarni o'ziga jalb qilmaydi. Ma'lumgi kitob dizayni ham kitobdan foydalanuvchini o'ziga tortuvchi asosiy omillardan biri. Yana bir jihati audio materiallarning yetarli emasligi. Til o'rganuvchilar talaffuzni eshitib, tinglab, ulardagi farqlarni anglash orqali talaffuz ko'nikmasini rivojlantirib boradi. Shunday ekan, audio materiallar bilan boyitilgan adabiyotlarni fan dasturiga kiritish lozim (mavjud adabiyotlarni saqlagan holda). Yana bir jihatga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, kitoblarning asosiy qismi rus tilidagi adabiyotlar. Bizning yurtimizda ta'lim yo'nalishlarning katta qismini o'zbek guruhlar tashkil etadi. O'zbek tilidagi nashrlar mavjud emasligi yana bir muammoli holat hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar jarayonida (SamDChTI) talabalardan qaysi kitoblardan darslar o'tilayotganini so'raganimizda, faqatgina institut tomonidan nashr qilingan, fan dasturida keltirilgan mavzular jamlanmasidan (UMK), fan dasturida kiritilmagan boshqa adabiyotlardan foydalanishlari aniqlandi. Bu shuni anglatadi-ki, fan dasturida keltirilgan adabiyotlar bilan talabalar tanish ham emas.

O'z o'rnida savol tug'ulishi tabiiy, ya'ni "Talabalar kerakli barcha kitoblarni sotib ololmasligini inobatga olib, oliygoh kutubxonalari talabalarninig kitobga bo'lgan ehtiyojini taminlay olmaydimi?". Unga javobimiz quyidagicha: Agar talabalarni fanga qiziqitira olmasak, kutilgan natijaga erisha olmaymiz. Talabada fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, motivatsiyani uyg'ota olsak, talaba kerakli adabiyotni albatta topadi. Ilm olishda birgina kitobga bog'lanib qolish, unga bo'lgan qiziqishni so'ndiradi. Bir necha adabiyotlardan foydalanish talabalarda izlanishga, o'z ustida ishlashga undaydi.

O'zDJTU talabalaridan olgan javobimizga ko'ra ingliz tili fonetikasidan M. T. Irisqulov, A. S. Shatunova, A. A. Muzikina muallifligi ostida chiqarilgan "English Phonetics" kitobidan o'tadi. Ushbu kitob nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham yaxshi adabiyot hisoblanadi. Biroq, ushbu o'quv adabiyoti audio materiallarga ega emas. talabalar trantskriptsiyaga asoslangan holda talaffuz mashqlarini bajara olishi mumkin. Bu vaziyatda o'qituvchining talaffuzi talabalar uchun yagona vosita bo'lib qoladi. O'zDJTU o'quv dasturida **[10]** keltirilgan adabiyotlar ro'yxati quyidagilardan iborat: Mark Hancock. English pronunciation in use. 2003. Cambridge University press; J. D. O Connor Clare Fletcher. Sounds English. A pronunciation practice book.1997.; Martin Hewings. Pronunciation tasks. A course for pre-intermediate learners. Cambridge University press, 1993.; Iriskulov M.T., Shatunova A.S. English Phonetics. – T. 2006.; Iriskulov M.T., Shatunova A.S. Practical English Phonetics Achievement Tests, T., 2007.; Ann Baker Tree or Three. Second edition. Cambridge, University press, 2007.; Ann Baker Ship or Sheep. Third edition. Cambridge, University press, 2006.; Martin Hewings. Pronunciation Practice Activities. Cambridge, 2004.; O'Connor. Better English Pronunciation. Cambridge, 1995.; Peter Roach English Phonetics and Phonology. A Practical Course. Cambridge, 1994.

Keltirilgan adabiyotlar ro'yxati SamDChTI fan dasturiga nisbatan ko'p va ingliz adabiyotlari soni jihatidan ham farqlanadi. Biroq, oliygoh talabalar keltirilgan ro'yxatdagi adabiyotlarni to'liq ma'lumotga ega emas va birgina kitobdan foydalanib kelinmoqda. Guruhlarda ham birgina kitobga "qaramlik" holati mavjud. Undan tashqari O'zDJTU fan dasturida ham keltirilgan adabiyotlar nashri eski, yillar davomida asosiy adabiyotlar yangilanib borishi, yili eski bo'lsada o'z samarasini yo'qotmagan adabiyotlar qo'shimcha adabiyotlar ro'yhatiga kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida ona tili va fonetikasi o'qitilishiga doir holatni o'rganish maqsadida tajriba sinov ishlari o'tkazilgan oliygozlarga murojaat etdik. Ma'lum bo'lishiga ko'ra, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti **[11]**, Guliston davlat universiteti **[6]** va Samarqand davlat chet tillari institutida **[9]** filologik yonalishining (ingliz tili), bakalavr davrida faqat 1 kurs uchun "O'zbek tili" fani kiritilgan va bu 120 soatni o'z ichiga oladi. O'zbek tili fonetikasi alohida fan sifatida kiritilmagan. Biroq ushbu soat o'zbek tili fonetikasini o'qitishga yetarli emas, sababi kiritilgan mavzular qisman o'rganib chiqishga qaratilganligi birinchi va o'rganilayotgan tilning fonetik jihatlarini o'rganish va solishtirishga yetarli emas deb hisoblaymiz.

Ta'lim jarayoniga bo'lgan zamonaviy talabalar bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik jihatdan yetuk mutaxassislar qilib yetishtirishda leksik, grammatik, nutqiy faoliyati

shakllantiruvchi chuqur kasbiy bilimlar bilan birgalikda, keng intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxsni (o'qituvchi) shakllantirishni asosiy maqsad qilib belgilanishi lozim.

Chet til talaffuzini takomillashtirishda nazariy bilimlarni mustaxkamlash maqsadi amaliy mashg'ulotlar sonini oshirishning tarafdorimiz. Chunki nazariy bilimdan ko'ra amaliyot talabalar ongida tez muhrlanadi. Bu jarayonda Oliy ta'lim muassasalarining chet tili talaffuzi ko'nikmalarini yanada shakllantirish, tuzatish, kommunikativ foaliyatini ongli ravishda qiyosiy, fonologik va fonetik yondoshuvlarni birlashtirgan holda amalga oshiriladi.

Talaffuz tilning og'zaki nutqdagi ifodasi. Uning birligi tovushlar hisoblanib, ularni talaffuz qilishda bir muncha qiyinliklar yuzaga kelishi borasidagi bilim va fikrlarimizni ilmiy ishimizda keltirib o'tdik. Har bir nazariyaning amaliyotda qo'llanilishi uning yanada mustahkam o'zlashtirib olishning samaradorligini oshiradi.

IXX asr oxirlarida xalqaro munosabatlarning rivojlanishi davr talabiga aylanib bordi. O'z navbatida bu, chet tillarini o'qitishda muhim masalalarni yuzaga keltirdi. Shunday ekan, ingliz tili talaffuzini rivojlantirishga doir bir necha mashqlarni keltirib o'tamiz.

Amerikalik metodist M. Berlits chet tilini o'qitishda birinchi til (ta'siri) omilini oldini olish maqsadida to'g'ri metodni (direct method) chetdan kelgan immigrantlarga qo'llashni tavsiya etdi va buni amalga qo'lladi [7, p. 57]. Ushbu metodning asosiy talabi bu ona tilini qo'llamagan holda til o'qitishdan iborat. Bu borada "Mind Your Language" [12] nomli ko'rsatuvlar seriasi olingan. YouTube orqali ko'zatsangiz, eski bo'lsada qiziqarli olingan ingliz tili darslarini ko'rishingiz bilan bir qatorda, nafaqat ingliz tili balki boshqa tillardan ham bir qancha so'zlarni o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Immigrantlarning birinchi tili ishtirokisiz ingliz tilini o'zlashtirib olishini kuzatarkansiz, ushbu metod chin ma'noda o'z maqsadini amalga oshirishga erishganini guvohi bo'lasiz. Albatta bu ko'rsatuv senariy asosida olingan, real qaraydigan bo'lsak, to'g'ri metodning bir qancha afzalliklari bo'lishiga qaramay, o'z navbatida qiyin tomonlari ham mavjud. Ya'ni, bu metod yordamida umumiy maktablarda qo'llash kutilgan natijani bermasligini X.D Brovn o'z kitobida keltirib o'tgan [3, p. 26]. Biz X.D Brovn keltirib o'tgan sabablarga qo'shilgan holda, to'g'ri metod interferentsiya yuzaga kelishini oldini olishi mumkin. Ammo, bu metod til o'rganuvchilarni tez va oson ravishda chet tili o'rganishini birmuncha (o'qituvchi nutqini tezda anglab olishi qiyin, vaqt masalasi, so'zlarni mimika, qo'l va tana harakatlari yordamida tushuntirish hollarining mavjudligi, o'quvchilarning o'qituvchidan mavju yuzasidan tushunmagan joyini so'rab olishining murakkablashi) qiyinlashtiradi.

Xulosa. Tahlilga tortilgan oliy ta'lim muassasalari fan dasturidagi adabiyotlarni butunlay samarasiz deya hisoblashdan yiroqmiz. Ushbu adabiyotlar yil jihatidan eski turdagi adabiyotlar ro'yhatiga kirsada nazariy jixatdan kerakli ma'lumotlarga ega. Biroq o'rganilayotgan til talaffuzini rivojlantirishda ushbu adabiyotlar yetarli deb hisoblamaymiz. Bunga sabab, talaffuzdagi tovush interferentsiyasiga bevosita ona tili tasiri mavjud. Keltirilgan adabiyotlar esa faqat ingliz tiliga oid. O'zbek tili ta'siri borasida biron ma'lumotga ega emas. Ma'lum-ki, ta'lim tili rus tili bo'lgan guruxlar ham mavjud. Bu borada ham biron ma'lumotga duch kelinmaydi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga qo'shimcha qilgan holda, ona tili fonetikasi ta'lim jarayonida chuqur o'qitilishi muhim deb hisoblaymiz. Bunga sabab esa, chet tili o'rganish jarayonida birinchi tilning ta'siri yoki ikkinchi tilning birinchi tilga ta'siri kuzatiladi. Mana shu holatlarni bartaraf etishda ikki tilning fonetikasini o'qitish, ular orasidagi farqli va o'xshash tomonlarini o'rganish to'g'ri va oson yechim bo'ladi. Bu bir tomondan o'rganilayotgan tilni

to'g'ri va to'liq o'rganishga yordam bersa, ikkinchi tomondan ona tili sofligini saqlashga ko'maklashadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ashby M., Przedlacka J. Towards a history of teaching, learning and assessment in phonetics // Proceedings of the Phonetics Teaching and Learning Conference UCL, Лондон. 8–10 August 2013.
2. Buss L. Beliefs and practices of Brazilian EFL teachers regarding pronunciation // Language Teaching Research. 2016. Vol. 20 (5).
3. Brown, H. D. Principles of language learning and teaching (4th ed.). New York: Longman. 2000. p-26
4. Wrembel M. Metacompetence-based approach to the teaching of L2 prosody: practical implications // Non-Native Prosody. (Trends in linguistics. Studies and monographs). Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2007. Guliston davlat universiteti, "Amaliy fonetika" 2020-2021 o'quv yili fan dasturi va ishchi o'quv dasturi.
5. GulDU, Amaliy fonetika, 2020-2021 o'quv yili fan dasturi.
6. GulDU, O'quv jarayoni jadvali, 2020 y.
7. Sweet H. On the practical study of language // transaction of the philological Society. № 4: -1882. p-57
8. SamDCHTI, Kommunikativ-normativ Fonetika, 2020-2021 o'quv yili fan dasturi.
9. SamDCHTI, O'quv jarayoni jadvali, 2020 y. <https://guldu.uz/uz/faoliyat/oquv-uslubiy-faoliyat/ishchi-oquv-rejalar/>
10. O'zDJTU, Til aspektlari amaliyoti, 2020-2021 o'quv yili fan dasturi.
11. O'zDJTU, O'quv jarayoni jadvali, 2020 y. <https://www.uzswlu.uz/page/view/19>
12. https://youtu.be/8xDqf0K4_uI

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ 5/4 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).